



O'zbek xalq dostonlari

“SHARQ” NASHRIYOT-MATBAA AKSIYADORLIK
KOMPANIYASI BOSH TAHRIRIYATI
TOSHKENT — 2006

Aytuvchi: **Rahmatulla shoir Yusuf o'g'li**

Nashrga tayyorlovchilar:

To'ra Mirzayev va Zubayda Husainova

T a h r i r h a y ' a t i:

Omonulla Yunusov (hay'at raisi), Ahror Ahmedov (hay'at raisi o'rinbosari), Mamatqul Jo'rayev, Erkin Malikov (hay'at kotibi), To'ra Mirzayev, Abiir Musoqulov, Muhammadali Qo'shmoqov, Shomirza Turdimov, Ibodulla Shoymardonov


R a s s o m:

Temur Sa'dullayev

Go'ro'g'li: O'zbek xalq dostonlari / Aytuvchi Rahmatulla shoir Yusuf o'g'li; Tahrir hay'ati: O. Yunusov, A. Ahmedov, M. Jo'rayev va boshq./ Rassom T. Sa'dulla. — T.: Sharq, 2006. — 448 b.

“Go'ro'g'li” turkumi dostonlari yuzga yaqin xilma-xil mazmundagi asarlarni o'zida birlashtirgan ulkan silsiladir. Xalq baxshilari bu turkumga kiruvchi dostonlarni sevib kuylab kelganlar. Ushbu jildga Rahmatulla shoir Yusuf o'g'lidan yozib olingan 27 doston kiritildi. Ularda afsonaviy xalq qahramonining tug'ilishi, uning bahodirona yoshligi, jasoratlarga to'la hayoti, ozodlik o'lkasi — Chambil shahrining bunyod etilishi, asrandi farzandlar — Hasanxon va Avazxonlarning Chambilga keltirilishi, ularning bahodirliklari turli-tuman sarguzashtli voqealar girdobida tasvirlanadi. Dostonlar qahramon va sevimli yor sadoqati, ota-ona va farzand burchi, birodarlik va do'stlik, ona yurtga muhabbat masalalaridan bahs etadi. Har bir doston badiiy mukammalligi va jozibadorligi bilan kitobxonni o'ziga jalb eta oladi.

BBK 82.3(SU)



QIRQ YIGIT BILAN QIRQ QIZ





Go'ro'g'libek yoshlik pillasida bir belning uvtida chortoq qilib, G'irko'k otini shu chortoqning tubiga boylab, o'zi chortoq ustida o'tirib, yo'ldan o'tgan savdogarlardan zakot olar edi. U yoqdan, bu yoqdan yigitlar kelib Go'ro'g'liga qo'shilar edi, bora-bora qirq yigit bo'ldi. Savdogarlar: "Chortoqli changib yotgan belda Go'ro'g'li zakot bahonasi bilan bizlarni talaydi. Shu Chortoqli chang beldan o'tamiz", — de-yishar edi. Ko'p yil, ko'p oylar o'tib, Go'ro'g'li shu belda bir qo'rg'on bino qildi. Bora-bora shu yer obod bo'lib, Chortoqli chang bel, Changbel, Chambil deb ataldi. Sovut to'ning yoqasi, turkmaning og'asi, Go'ro'g'libekning tog'asi Ahmad sardor ham Go'ro'g'lidan qo'rqib, turkman yurti, elatining ixtiyorini Go'ro'g'liga topshirdi.

Ana endi Go'ro'g'li turkman eliga, Qiziloyoq cho'liga, Chambil beliga xon bo'ldi. Taka-Yovmit yurtini juda obod qildi, hamma xalqning ko'nglini shod qildi. Kunlardan bir kuni Go'ro'g'libek Qirq yigitlari bilan suhbat qilib o'tirishganda, Qirq yigitlariga qarab, mo'ylovini burab, soqolini tarab: "Ey, yigitlarim, shu vaqtgacha men bilan yurib, kayfu safo qilib, ko'ngillaringda hech cherlaring qoldimi?" — deb bir so'z aytib turgan ekan:

Ey, yoronlar, bu so'zimni eshiting,
Ko'ngilda armoning bormi, Qirq yigit,
Bu shirin gaplarga quloqlar tuting,
Yurakda armoning bormi, Qirq yigit?

Sizlarga chin bilan qildim vafoni,
Ko'rmadinglar bunda jabr-u jafoni,
Qildinglar qancha bir kayfu safoni,
Hali ham armoning bormi, Qirq yigit?

Bir tog'im Asqardir, biri Bolqondi(r),
Kiydingizlar sovut to'nman qalqondi,
Suv o'rniga chaynab ichib talqondi,
Hali ham armoning bormi, Qirq yigit?

Ana endi Qirq yigit Go'ro'g'liga qarab, barilari birdaniga: "Bizlar kayf-u safoni juda ko'p qilib, armonimiz qolmadi, lekin Qirq yigitda bir armon qoldi", — deb bir so'z degan ekan:

So'zlagan gaplarda shirin til bo'lar,
Bahorda ochilgan bog'da gul bo'lar,
Bizlar ham parizod qizdan olmadik,
Qirq yigitning bir armoni shul bo'lar.

Parangi yor quchib uyqu to'ymadik,
Saylab-saylab suluv qizlar suymadik,
Dunyoda farzanddan nishon qo'ymadik,
Qirq yigitning bir armoni shul bo'lar.

Suluv suyib bo'yniga qo'l solmadik,
Yaxshi yordan saylab-saylab olmadik,

Yedingizlar doim qand-u navvotdi,
Minganga mingdinglar tulpor otdi,
Sizga topshirganman Yovmit elatdi,
Hali ham armoning bormi, Qirq yigit?

Ovlamoqqa ko'lda shunqor qushingiz,
Berdim sizga har ne bo'lsa hushingiz,
Kayfu safo qilmoq sizning ishingiz,
Hali ham armoning bormi, Qirq yigit?

Bu so'zlarni aytgan Go'ro'g'lixondi(r),
Sizlarga sarf etdim oziq-talqondi,
Ayting menga ichlardagi armonid,
Hali ham armoning bormi, Qirq yigit?

Bul o'tar dunyoda juftlik qilmadik,
Qirq yigitning bir armoni shul bo'lar.

Besh kunlik dunyoda davron surmadik,
Bizlar ham bir vatan qilib turmadik,
Xotin olib ro'zg'or qilib ko'rmadik,
Qirq yigitning bir armoni shul bo'lar.

Go'ro'g'li minganda tilla taxtiga,
Mingizgan-da yigitlarni raxtiga,
Qaramadi bizday do'stlar baxtiga,
Qirq yigitning bir armoni shul bo'lar.

Shunda Go'ro'g'libek: "E, gunoh bizdan o'tgan ekan-da. Hay, kechiringlar, ko'ngillaringdagi dog'larning o'tini o'chiringlar. Endi sizlarning baxtlaringiz uchun alohida bir safar qilaylik, ko'z ko'rma-gan, quloq eshitmagan joylarga borib, mehmon bo'laylik. Hoy, Soqi, G'irko'kni abzalla. Qirq yigitlarning otlarini ham choppa-choq qilib tayyorla", — deb so'zlab turgan ekan:

Ustingga kiyganing zarrin banotdi(r),
Yigitlarim bari po'lat qanotdi(r),
Qirq yigitim bedovini tayyorlab,
Soqiyo, abzallab kelgin G'irotdi.

Ulug' debon ostonangga bosh uray,
Dushmanlarning siynasiga tosh uray,
Raqiblardan har na sirim yashiray,
Soqiyo, abzallab kelgin G'irotdi.

Safar qilib, baxt axtarib jo'nayik,
Har manzilda rohatlanib qo'nayik,

Qirq yigitga shodlik-sharob sunayik,
Soqiyo, abzallab kelgin G'irotdi.

Safar qilib uzoq yo'lga tushayin,
G'ayrat qilib Asqar tog'dan oshayin,
Tuman daryosiday to'lib-toshayin,
Soqiyo, abzallab kelgin G'irotdi.

G'ayrat qilib, jo'shadirman saharlar,
Go'ro'g'lining so'zlar so'zi shakarlar,
Qirq yigitga topib kelay dilbarlar,
Soqiyo, abzallab kelgin G'irotdi.

Ana endi Soqi miroxo'r qirq yigitning otlarini, G'irko'kni abzallab tayyorladi. Go'ro'g'libek qirq yigiti bilan otlariga qarab qo'zg'alayotir:

Go'ro'g'libek sherday bo'lib,
Polvonlikda erday bo'lib,
Oldinma-keyin saf tortdi,
Hammalari birday bo'lib,

G'ayratlari keldi gurkirab,
Qatordagi norday bo'lib.

Bari birday otga mindi,
Jo'namoqchi bo'lib endi,
Ko'ngilni qilib xursandi,
Jo'nay berdi g'ayrat qilib,
Ko'cha yuzi safga to'lib.

Otga mindi alvon-alvon,
Go'ro'g'libek qildi javlon,
Barilari yo'lga tushdi,
Ko'cha yuzin qilib larzon.

Mard Go'ro'g'li otga minib,
Yigitlarin ko'ngli tinib,
Bularni otga mindirdi,
Soqi sozlab, sharob sunib.

Shaharga ovoza solib,
Olmos isfihonlar olib,

Qator bo'p ko'chaga tushdi,
Dobullarin birday chalib.

Jo'nay berdi satta sherlar,
Botir bo'lib yurgan erlar,
Ko'nglida qolmayin cherlar,
Qator-qator qizil norlar.

Chambil shahrin gurullatib,
Yigitlarin g'urullatib,
Qirq pahlavon jo'nay berdi,
Otlar surib shirillatib,
Bayroqlarin pirillatib,
Bedovlarin arillatib,
Yo'lga tushib jo'nay berdi,
Tulporlarin zirillatib.

Kulib-kulib Qirq yigitlar,
Bir-biriga so'zlar qotib,
Jo'nay berdi birday bo'lib,
Otlariga qamchi chatib,
Shamolday bo'p ketib borar,
Jonivorlar jonin sotib,
O'zlarining tomoshasiga
Chambil xalqini qaratib.

Ana endi Chambil shahriga ovoza tushdi, "Go'ro'g'libek Qirq yigitiga xotin izlab, dobul sozini sozlab, safarga borayotgan emish", — deb Chambilning to'qson yasharidan to'qqiz yasharigacha, saxon yasharidan sakkiz yasharigacha, yetmish yasharidan yetti yasharigacha tomlarning ustiga tomoshaga chiqdi.

“Go‘ro‘g‘libek qanday qilib yigitlari bilan saf tortib borayotgan ekan”, — deb bo‘yi kaltalar bo‘yi uzunlarning ustidan osilib, qarab turibdi.

Shunda Go‘ro‘g‘libek Xoldor mahramni orqaga qaytarib, bizlar kelguncha Chambilni saqlab turgin, deb Xoldor mahramga qarab, so‘zlab turgan ekan:

Dushman kelsa, ayamasdan urgaysan,
Odillikman hukmi davron surgaysan,
Xoldor, o‘zing bir ishongan mahramim,
Chambilbelga hokim bo‘lib turgaysan.

Qara, Xoldor, Go‘ro‘g‘libek tarziga,
Haybatim duch kelar cho‘qmor gurziga,
Chambilbelga hokim bo‘lib, Xoldorxon,
Odilman quloq sol ellar arziga.

Chambil eshigiga kumush yapshirdim,
O‘tkir isfihonim qinga qopshirdim,
Chambilbelni obod qilib turgaysan,
Hokimlikni, Xoldor, senga topshirdim.

Go‘ro‘g‘libek minmish G‘irko‘k otiga,
Bormoq uchun dushmanlar elatiga,
Chambilimni, Xoldor, senga topshirdim,
Ketarman men Koshon viloyatiga.

Ana endi Go‘ro‘g‘libek: “Men endi Koshon viloyatiga boraman. U shaharda qirq pahlavon qiz hokimlik qilari emish, ko‘rkamlikda ovozasini olamga ketgan emish, shularga talab solib kelib, ko‘p polvon yigitlar kurashib, dunyodan o‘tgan emish. Qirq yigitim bilan borib, shul qiz-juvonlarni ko‘rib, yo jon berib, yo olib qaytaman. Sizlar keta beringlar, men orqalaringdan yetaman, — deb Qirq yigitni jo‘natib yubordi. O‘zi Xoldorxonaga qarab, qaytib kelguncha omon bo‘l”, — deb so‘zlab turgan ekan:

Buzuq suhbatlarman ko‘ngil ovutma,
Aslo bebosh bo‘lib o‘zingdan ketma,
To ko‘rgancha omon bo‘lgin, Xoldorxon,
Dushman kep qolmasin, g‘ofil bo‘p yotma.

Chambilbelga hokim bo‘lib, Xoldorxon,
Olifta bo‘p, tumshug‘ingni ko‘tarma.

Har nechuk nodonga siringni aytma,
G‘anim kelsa, kes boshini, qut aytma,
G‘ofil qolib Chambil ichra, Xoldorxon,
Tag‘in nomard beboshlarni ko‘paytma.

Hargiz birov so‘zlariga kirmagin,
Xabardor bo‘l, elda bekor turmagin.
Tag‘in g‘aflat bosib qolib, Xoldorxon,
Chambilday elatni qo‘ldan bermagin.

Mard yigitlar nomard so‘zin yutarmi,
Esli odam bekorangi yotarmi,

Bu so‘zlarni aytar Chambilning xoni,
Tovlatayin qirq yigitday siponi,
Omonda bo‘l bizlar qaytib kelgancha,
Bo‘lib turgin Taka-Yovmit sultoni.

Ana endi Go‘ro‘g‘libek G‘irko‘k otining jilovini burib, qirq yigitning orqasidan ketib borayotir:

Mard otini suradi,
Yurmaganda uradi,
Qirq yigitning ortidan
Go‘ro‘g‘libek boradi.

Oladi-yo, oladi,
Otga qamchi chaladi,
Go‘ro‘g‘libek to‘zanglar
O‘rtasida qoladi.

Parvardigor panodi(r),
Holin bilgan donodi(r),
Qirq yigitning ketidan
Mard Go‘ro‘g‘li jo‘nadi.

Qo‘liga qilich olib,
Bo‘ldi safarga tolib,
Go‘ro‘g‘li quv jo‘nadi,
Otiga qamchi solib.

Ko‘lda yolg‘iz so‘nadi,
Suvga sho‘ng‘ib qo‘nadi,
Qirq yigitning ketidan
Go‘ro‘g‘li quv jo‘nadi.

Yo‘l kelsa, yo‘rg‘alatdi,
Tekis kelsa, bo‘shatdi,
Qir kelsa, qiyalatdi,
Nishab kelsa, to‘xtatdi.

Go‘ro‘g‘li qip g‘ayratdi,
G‘irotga qamchi chotdi,
Qirq yigitning ortidan
Yetayin, deb yo‘l tortdi.

Go‘ro‘g‘li ko‘zlagani
Koshonday viloyatdi,
Xom ekandi G‘irko‘k ot,
Oppoq ko‘pikka botdi.

Go‘ro‘g‘li qip g‘ayratdi,
Qirko‘kka qamchi chotdi,
Ot ham qilib g‘ayratdi,
Kam-kam o‘zin tuzatdi.

Katta yo‘l changib ketdi,
Atrofni to‘zon tutdi,
Oti bilan Go‘ro‘g‘li,
To‘rt enli changa botdi.

Ot o‘ynatib Go‘ro‘g‘li,
Olislarni ko‘zlaydi,
Ko‘ziga durbin tutib,
Qirq yigitni izlaydi.

G‘irot borar g‘orillab,
O‘qday bo‘lib zirillab,

Go‘ro‘g‘li haybatiga
Tog‘- u toshlar dirillab.

G‘irko‘k ot g‘arqiraydi,
O‘qtalib pirqiraydi.
Olisni ko‘zlab bedov,
Chopmoqqa zirqiraydi.
Qichamoqda G‘irko‘k ot
Suvdayin sharqiraydi.

Go‘ro‘g‘li ot ustida
O‘ng-u so‘llarga boqdi,
Ostidagi bedov ot
Suvdayin bo‘lib oqdi.

Tuyog‘i tekkan toshni
Yong‘oqday qilib chaqdi.

Ha, deb otini surdi,
Qistovlar qilib yurdi,
Oldi nishab kelganda,
G‘irko‘k ot to‘xtab turdi.

Hech tinmayin yuradi,
Otga qamchi uradi,
Go‘ro‘g‘li Qirq yigitni
Izlab ketib boradi.

Ana endi gapni Qirq yigitdan eshiting. Qirq yigit Asqar tog‘ining beliga chiqib qarasa, belning yaylovi-da bir qalandar bitta ola cho‘mpich¹ otni o‘tlatib o‘ltiribdi. O‘zi yalang‘och, orqasi do‘ngraygan, ko‘zlari cho‘ngraygan, qo‘lida kamoni, o‘zidan o‘zi ermak qilib, qo‘shiq aytib o‘ltiribdi. Ana bu qalandarning aytib o‘ltirgan qo‘shig‘i ekan:

Har eshikka xayr qil, deb
Aldabon men boraman,
Ko‘chalarda yugurib,
Bir parcha non axtaraman.

Go‘ro‘g‘libek o‘tsa agar,
Shunda kurashib ko‘raman,
Men Koshonning qizlariga
Oshiq bo‘libon yuraman,
Go‘ro‘g‘li shundan o‘tganda,
Yo‘lda uni o‘ldiraman.

Yo, oblo, do‘st, yo oblo,
Ilollo, do‘st, ilollo.

Payg‘ambardan qolganman,
Chiltondan duo olganman,
Go‘ro‘g‘liday ko‘p polvonni
Shu yo‘lda bandi qilganman,
Qirq qizga oshiq bo‘lganman.
Yo, oblo, do‘st, yo oblo,
Ilollo, do‘st, ilollo.

Shu qalandar ham Koshon viloyatiga hokim bo‘lgan qirq qizga oshiq edi. “Go‘ro‘g‘li shu qizlarga shu tog‘dan o‘tadi. Shunda Go‘ro‘g‘lini o‘ldirib, ko‘nglimni tindirib, undan keyin o‘zim Koshon viloyatining qirq qizini borib olaman”, — deb ola cho‘mpich otini shu tog‘da boqib, semirtirib yotar edi.

¹ Keyingi ikki oyog‘i kalta bo‘lib qolgan ot (*Baxshi izohi*).

Qirq yigit bu qalandarni ko'rib, hech qaysisi o'zini bildirmay, tog'ning panasida pisinib turib edi. Go'ro'g'libek G'irotni shamolday surib yetib bordi. Qirq yigitlardan gapning ma'nosini so'rdi. Shunda qirq yigitlar qalandarni bayon qilib, bir so'z deb turgan ekan:

Cho'ktarma cho'qqili Asqar tovidir,
Olqar, kiyik mard yigitning ovidir,
Bu tog'da yurgan bir odamnavidir,
Ayiqli, bo'rimi, yo bir davidir.

Quloq soling qirq yigitning so'ziga,
Gul yarashar jonon qizlar yuziga,

Shu panada bir qalandar turibdi,
Tiqib yuborsa, tovoq sig'ar ko'ziga.

Quloqlari, ko'rsang, misli qalqonday,
Bo'yi oning uzunlikda Bolqonday,
Cho'nqayib dustamon bo'lib yotibdi,
O'tirishi ko'rsang uning cho'rlonday¹

Shunda Go'ro'g'li: "Qani, o'zim bir tomosha qilayin", — deb qarasa, murti shopday, og'zi ko'hna qopday. Soqollarini uzib olsa, bitta arqon bo'ladi. Qulog'ini uzib olsa, bitta supra bo'ladi. Agar qoshining ichiga odam oralasa, adashib ketadi. Har bir panjasi terakday, unga Go'ro'g'lining kurashmoqligi kerakday. Go'ro'g'li G'irotni o'ynatib, suvlig'ini chaynatib, qalandarga qarab bora berdi. Qalandar ham Go'ro'g'lini ko'rib: "Qayoqdan kelayapsan, mening oldimga kim duch kelsa, o'ladi", — deb Go'ro'g'liga qarab, bir so'z deyaotir:

Oldimga, nomard, jo'lashma²
O'z-o'zidan haddingdan oshma,
Kelsang, baribir o'lasan,
O'limingga darrov shoshma.

Qiyomat senga yaqindi(r),
Yo'lama qoshima endi.
Kallangni olib kesarman,
Xanjarim bilan o'sarman,
Agar kelsang qabatimga,
Kelgan yo'lingni to'sarman.

Mening otim Shaydulldir,
Yurgan yo'lim tog'man adir,
Turishimning sababini,
Agar so'rsang, menga g'anim
Bo'lgani Go'ro'g'lishodir.

Go'ro'g'lini ko'rsam agar,
Ichirayin unga zahar,
Koshonning viloyatida
Oshiqlarim qirqta dilbar.

— Shu aytgan Go'ro'g'ling men bo'laman, senday qalandarning nechovini nobud qilaman, — deb Go'ro'g'libek qalandarga qarab, bir so'z degan ekan:

To'lib-toshmagan g'ayratga,
Talab qilsang, mingin utga,
Kallangni sapchaday uzib,
Yuborayin qiyomatga.

Go'ro'g'li degan mendirman,
Tarafsiz polvondirman.
Kesaymi sening boshingni,

Zahar qip ichgan oshingni,
Zag'izg'onga qoldirib,
Ketayin gavda-loshingni.

Olib bul cho'mpich otingni,
Quritay sening zotingni,
Maqsad senga qirq qiz bo'lsa,
Tila mendan hojatingni.

Ana endi qalandar: "Sen Go'ro'g'li bo'lsang, sen bilan bir olishay, agar yiqsam, seni nobud qilay, yiqilsam, sening diningga kiray", — deb otiga dap berib kela berdi. Go'ro'g'li sulton qalandarning belidan o'xshatib ushlab, iyagining tagiga besh-olti mushtlab, oyog'idan ko'tarib, kallasidan itarib, yerga bir urdi, Shaydullo Qalandar o'zini Go'ro'g'lining ostida ko'rdi. Go'ro'g'lining polvonligiga tan berdi, uning ixtiyoriga kirdi, ola cho'mpich otini ham Go'ro'g'liga berdi. "E, Go'ro'g'li, endi meni ham Koshonga iyartib bor. Qirq qizning Jondorpuch degan enasi bor, shuni menga olib bersang, bo'lgani. Qizlarini qirq yigiting-

¹ Cho'rlon — shaytonning erkagi (Baxshi izohi).

² Jo'lashma — yaqinlashma (Baxshi izohi).

ga olib bera ber. Men sening zo‘rligingga tan berdim, o‘lganimcha senga xizmatkor bo‘lay”, — deb Shaydullo qalandarning Go‘ro‘g‘liga aytgan so‘zi ekan:

Go‘ro‘g‘libek, har na borim seniki,
Bisotimda yo‘qu borim seniki.
O‘lganimcha xizimatingni qilayin,

Darvozungda posiboning bo‘layin,
Jondorpuch kampirni bersang bo‘ladi,
Qanoat qip men shu yorni olayin.

Shunda Go‘ro‘g‘li: “Endi sening oting Shaydullo bo‘lmasin, Hasan chopson¹ bo‘lsin. Seni qo‘rboshi qildim. Sen ham bizlar bilan birga yur, shu Jondorpuch kampirni senga olib beraman”, — degandan keyin Hasan chopson ham qirq yigit bilan qo‘shilib, bari Koshon viloyatiga qarab jo‘nab ketdi. Ana endi jo‘nab borayotir:

Qirq yigit shovqin solib,
Bo‘ldi yo‘llarga tolib,
Otlarga qamchi chatdi,
Katta g‘ayratlar qilib,
Hammasi ot qistadi.

Qator-qator bo‘lishib,
Yo‘lda dasta-dastadi(r),
Bularning ot chopishi
Balanda ham pastdadi(r).

Otlarga qamchi chatib,
Tez yetsak, deb qistadi,
Hammasi ot chopmoqqa
Go‘ro‘g‘lidan ustadi(r).

Yo‘l yurdi kecha-kunduz,
Oqshomlar sanar yulduz,
Qatorlashib boradi
Bir-biriman izma-iz.

Yo‘lda yozadi quloch,
Ovqat yemay, qorin och,
Och qob, och qob qolganda,
Kulga ko‘mib yeb ko‘moch.

Yo‘llarda bo‘ladi shod,
Dillarin qilib obod,

Yaqin qoldi makon, deb
Koshondayin viloyat.

Shuytib ketib boradi,
Ot o‘ynatib boradi,
Mingan otlari tulpor,
Jonlar sotib boradi,
Bir-biriga hazilmand,
So‘zlar qotib boradi.

Necha tog‘lardan o‘tdi,
Ko‘rib ko‘p viloyatdi,
Bir oy tinmay yo‘l yurib,
Koshon eliga yetdi.

Bedov otlar yol-quyrug‘i yonadi,
Har kuni kech bo‘lsa, otdan qo‘nadi,
Kecha yotib, kunduzlari barisi
Qatorlashib, saf tortishib jo‘nadi.

Qirq yigitning ochilibdi ko‘ngili,
Yaqin qopti endi Koshonning eli,
Olislardan ko‘rinadi buldirab,
Minora, peshtoqlar ham tovin beli.

Ot chopilar baland tog‘ning pastiga,
Quloq soling so‘zimning payvastiga,
Bir oygacha hech tinmayin yo‘l yurib,
Yetishib bordilar Koshon ustiga.

Ana endi Koshon darvozasining tubiga shunday borib qoldi. Darvoza ko‘rib, Jondorpuch kampirga xabar qildi. Jondorpuch ham qizlariga bildirib, bir so‘z deb turgan ekan:

Ajali yetganning umri to‘libdi,
Xazon yetsa qizil gullar so‘libdi.
Go‘ro‘g‘lini hazil bilmang, qizlarim,
Qirq yigit bilan bunda kelibdi.

Dunyoda sihatlik katta bir davlat,
Ilohim, olamda ko‘raylik rohat,
Go‘ro‘g‘li quv yov bo‘p bizga kelibdi,
Qizlarim, beringlar endi maslahat.

¹ Qo‘lyozmada “sapgon”. Baxshi “Sap tuzatgich” deb izoh bergan. “Go‘ro‘g‘li” dostonlari an‘anasiga ko‘ra, “chopson”, deb berdik.

Quloq soling Jondorpuchning so'ziga,
Olovday chaqnagan ikki ko'ziga,
Enangning achchig'i juda kelibdi,

Sizlarga ham bir nasihat qilibdi,
Endi Go'ro'g'liman kurashing, qizlar,
Qaramay ularning beti-yuziga.

Ana endi qirq qiz ham aslahalarini kiya berdi. Kattasining oti Guldonga, undan keyingisining oti Xoldona, undan keyingisining oti Tursuntosh, undan keyingisining oti Yalpoqboosh, kichkinasining oti Qalamqosh edi. Hammasi tayyor bo'lib, darvozaning oldida saf tortib turibdi. Shunda Go'ro'g'libek qizlarga qarab, bir so'z deb turgan ekan:

Keling, qizlar, dasta-dasta,
Urush bo'lsin asta-asta,
Siz bir yondan, biz bir yondan,
Solishaylik chappa-rosta.
Kelingizlar dasta-dasta,
Qirq yigit jonlarim bilan
Sizman bo'layik payvasta.

Maydonga jonlar sotilsin.
Jazoyil¹ miltiq otilsin,
Keling urushga tayyor bo'p,
Botir bir-biriga qotilsin,

To'lishgandir jamollaring,
Yetishgandir kamollaring,
Siz bir yondan, biz bir yondan,
Urushaylik kechib jondan,
Xanjar olib isfihondan,
Siz bir yondan, biz bir yondan,
Urushlar qilaylik chandon,
Kechishibon jonu tandan.

Qo'rqoqlar qochib qutilsin,
Maydonga qonlar to'kilsin,
Urushda tizlar bukilsin,
Qaysi biri mag'lub bo'lsa,
Cho'loq tuyaday cho'qilsin.

Keling, qizlar, urushaylik,
Mardi maydon bo'lishaylik,
Siz bir yondan, biz bir yondan,
Talab solib olishaylik.

Ana endi qizu juvonlar: "Sizlarning kelishlaringning asl sababi nima? Bizlarga ko'p kishilar kelib o'lib ketgan, ko'p odamlarning shu yerda ajali yetgan. Rostini aytinglar, yo bizlarga tolib bo'lib keldinglarmi? Yo jang uchun keldinglarmi? Agar jang uchun kelgan bo'lsanglar, xanjarma-xanjar urush qilaylik. Agarda tolib bo'lib kelgan bo'lsanglar, qo'lma-qo'l kurash tutaylik. Yigitlaringning bittasi bizlarni yiqsa, tan berib, qirq yigitingga tegaylik", — deganda, Go'ro'g'libek qizlarga qarab, bir so'z deb turgan ekan:

Yigitlarim, bellaringni bog'langlar,
O'zlaringni urush uchun chog'langlar,
Qirq qizlarni hazil bilmang, yoronlar,
Qalqon kiyib o'zlaringni saqlanglar.

Qirq yigitim, quloq soling so'zima,
Sizlarga qaragan qora ko'zima,
Qiz-juvonni hazil bilmang, yoronlar,
Birovi teng kelar mening o'zima.

Yigitlarim, maydonni rost quringlar,
O'zlaringni dadil qilib turinglar,
Qiz-juvonni hazil bilmang, yoronlar,
G'ayrat qilib yerga boplab uringlar.

Bulbullar qo'nadi bog'ning guliga,
Baxt kelib ulashsin tolib qo'liga,
Qiz-juvonni hazil bilmang, yoronlar,
Bularning tengi yo'q Koshon eliga.

Ana endi Hasan chopson ola cho'mpich otini yo'rg'alatib, kallasini irg'alatib, Go'ro'g'liga qarab, qirq qizga kurashmoqqa meni buyur, deb so'rab, bir so'z aytib turgan ekan:

Bo'ktarilgan Asqar tovman Bolqondi(r),
Yigitlar kiygani sovut-qalqondi(r),
Javob ber, qirq qizman kurash tushayin,
Hazil bilma Hasandayin chopsondi.

Sen-chun fido qilay jon bilan tandi,
Shodmon qilay qirq yigitday polvondi,
Hazil bilma Hasan chopson zo'rigin,
Xotinlik qilayin qirqta jonondi.

¹ Jazoyil — tuyaga ortib yuriladigan katta miltiq. (Baxshining izohi).

Qizil gul ochilsa, bulbul qo'nadi,
Xazon bo'lsa, bargi aning so'ladi,

Qiz-juvonna qirq yigitga olib ber,
Jondorpuchni menga bersang bo'ladi.

Shunda Go'ro'g'li: "Esa, mayli senga Jondorpuch kerak bo'lsa, olib bera qolay. Ikkoving bob kelib, bir-biring bilan hazil-pazil qilib yurasan, dunyoda davron surasan. Endi kurashga tush. Qani, ishingni ko'rsat", — dedi. Hasan chopson Go'ro'g'lidan oq fotiha so'rab, bir so'z deb turgan ekan:

Qahrim kelsa, qizil kulo kiyaman,
Achchiqlansam qiz-juvonna so'yaman,
Koshonning shahrini vayrona qilib,
Jondorpuchni o'zim olib qo'yaman.

Qiz-juvonman endi kurash qilay, deb
Go'ro'g'libek oq fotiha so'rayman.

Qahrilanib qizil salla o'rayman,
Siyosatga shomurtimni burayman,

Jondorpuch ishqida kelmasdi xobim¹,
Yod etib oqardi ko'zimdan obim²,
Aslim tojik, shuytib so'zga qo'shaman,
Qizlarman kurashay, bergin javobim.

Ana endi Go'ro'g'libek Hasan chopsonga oq fotiha berib yubordi. Hasan chopson maydonga kirayotir, qizlarga qarab chaqirayotir:

Kurashaylik chikka-pikka,
Qo'l tutishib, bo'lib tikka,
Sizlar chaqqon, dikka-dikka,
Siz bir yondan, men bir yondan,
Kel-ho, qizlar, yakka-yakka.

Baring bilan olishayin,
Qo'lma-qo'llar solishayin,
Teng bo'lishib sizlar bilan
Zo'ri-bozi qilishayin.
Siz bir yondan, men bir yondan,
Kel-ho, qizlar, yakka-yakka.

Qo'lma-qo'ldi ushlaylik,
Achchiq kelsa, mushlaylik,
Xuddi otning talashiday,
Chappa-rosta tishlaylik,
Siz bir yondan, men bir yondan,
Kel-ho, qizlar, yakka-yakka.

Maydon yuzi bo'lsin shudgor,
Eshitib oling polvon qizlar,
Sizga tolib bo'lgan bizlar,
Siz bir yondan, men bir yondan
Kel-ho, qizlar, yakka-yakka.

Ana endi qizlar birin-birin kelib, Hasan chopson bilan olisha berdi, zo'ri-bozi qilisha berdi, qizlar oldin-keyin yiqilisha berdi. Qirqtasini ham birin-ketin yiqitib boylab oldi. Qizlar bandi bo'lgandan keyin Jondorpuch kampirning qahri kelib, ilonday zahri kelib, lashkarlariga buyurib, bir so'z deb turgan ekan:

Lashkarlarim, hech qolmasdan boringlar,
Go'ro'g'lining qirq yigitin qiringlar,
Qirqta qizim bari bandi bo'libdi,
Qizlarim ayrib olib beringlar.

Tezroq boribon urushga kirib,
Qirq yigitning hammasini suringlar,
Gurzi, kaltak ayamasdan uringlar,
Yo o'ldiring, yo jonlarni beringlar.

Jondorpuch kampirning qirq ming lashkari bor edi. Hammasi chuvillashib, birdaniga Qirq yigitning ustiga to'kildi. Ana, Go'ro'g'libek ham tilla dubulni qoqib yubordi. Qirq yigitning hammasi ham urushga tushib ketdi.

Ot chopar asta-asta,
To'p-to'p bo'lib, dasta-dasta,
Urush bo'ldi chappa-rosta,
Botir urushga havasta,

Qo'rzoqlarning ko'ngli xasta,
Qirg'in bo'ldi baland-pastda,
Ot qo'ydi maydon ichinda.

¹ Xob — uyqu.

² Ob — suv. Bu yerda ko'z yoshi ma'nosida.

Otlar kelar og‘zin ochib,
Nomard ketar andan qochib,
Go‘ro‘g‘libek qonlar kechib,
Dushmanlarning qonin ichib,
Ot qo‘ydi maydon ichinda.

Go‘ro‘g‘li quv sherday bo‘lib,
Dushmanlarman birday bo‘lib,
Har yoqdan botirlar kelar,
Har ovziga ko‘pik to‘lib,
Surishar maydon ichinda.

Qilich, nayza shirqillashib,
Miltiqlar ham pirqillashib,
Qo‘rqoq qochar zirqillashib,
Kiyikdayin dirkillashib,
Botirning g‘ayrati toshib,
Ot qo‘ydi maydon ichinda.

Uzangilar sharqillashib,
Qonlar oqar g‘arqillashib,

Mardlar qo‘lida xanjari,
Oy tuqqanday yarqillashib,
Ot qo‘ydi maydon ichinda.

Dushman o‘ldi to‘p-to‘p bo‘lib,
O‘lik xirmoni ko‘p bo‘lib,
Yanchildi xirmon ho‘p bo‘lib,
Qirildi maydon ichinda.


Bedov otlar og‘zin ochdi,
Qirq yigitlar olov sochdi,
Bundayin zo‘rlikni ko‘rib,
Dushman bu ishga tan berib,
Ortiga qaramay qochdi.

Bir tarafdin Go‘ro‘g‘lixon,
Bir tarafdin Hasan chopson,
Bir tarafdin qirqta jonon,
Ot qo‘ydi maydon ichinda.

Ana endi dushmanlar to‘p-to‘p bo‘lib, hammasi har yerga qochib ketdi. Bu ishga Jondorpuch kampir hayron bo‘lib, Go‘ro‘g‘libekning oldiga kelib: “Endi sizlarning zo‘rliklaringizga tan berdim, qizlarimni ham sizlarga topshirdim”, — dedi.

Go‘ro‘g‘libek qirq yigitga qirq qizni nikohlab berdi. Jondorpuch kampirni Hasan chopsonga berdi. Jondorpuchning qulog‘i teskari bitgan, ayyorligi haddan o‘tgan, ikki betidan go‘shiti qochgan, manglayidan tarlon ochgan kampir edi. Qirq yigit qirq qizni otlariga mingashtirib oldi. Jondorpuch kampir ham eshagi-ga teskari minib, Hasan chopsonning orqasidan keta berdi. Hammasi Chambilga qarab ravona bo‘ldi. Yo‘l yurib, ozgina emas, mo‘l yurib, hammalari Chambilbeliga, Taka-Yovmit eliga yetib bordi. Hasan chopsonni darvozabon qilib qo‘ydi, Jondorpuchni ayyorboshi qilib qo‘ydi. Qirq yigitlar ham xotinlik bo‘ldi, olacho‘mpich ot Go‘ro‘g‘liniki bo‘ldi.

Go‘ro‘g‘lining to‘rtta tulpor oti bor edi. Birovi G‘irko‘k, birovi Jiyronqush, yana birovi Majnunko‘k, olacho‘mpich bilan to‘rtta bo‘ldi. Qirq yigitlar Go‘ro‘g‘li quv bilan davr surib yura berdi. Shu bilan Go‘ro‘g‘lining Qirq yigiti qirq qizlarni olib, murod-u maqsadiga yetdi¹.



¹ Doston 1946-yilning 24-iyulida shoir og‘zidan Hojiya Shokirova tomonidan yozib olingan.